ANESTEZIYADAN KEYIN INGICHKA ICHAKDA YUZAGA KELGAN MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARNI UZUM DANAGI MOYI BILAN BIOKORREKSIYA QILISH

Tillayev S.S.
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: t.f.d., dotsent L.J. Sultonova

Kalit so‘zlar: qo‘shma jarohat, mahalliy va umumiy anesteziya, uzum danagi moyi, biokorreksiya, morfometriya, ingichka ichak.

Dolzarbligi. Qo‘shma jarohat va anestetiklarning toksik ta’siri ingichka ichak shilliq qavatida sekretsiya, gipersekretsiya, yallig‘lanish va kompensator qayta qurilish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Bunday o‘zgarishlarni tabiiy antioksidant vositalar bilan yumshatish imkoniyati amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Mahalliy va umumiy anesteziyadan keyin ingichka ichak devorida rivojlangan morfologik o‘zgarishlarga uzum danagi moyi bilan o‘tkazilgan biokorreksiyaning morfometrik samarasini baholash.

Material va usullar. Eksperimental qo‘shma jarohat modeli (orqa oyoq yumshoq to‘qimasi shikasti) chaqirilib, hayvonlarga mahalliy anestetik (lidokain 10 % spreyi) yoki umumiy anestetik (propofol 1 %, 0,2 ml v/i) qo‘llanildi. Biokorreksiya guruhiga tarkibida proantotsianidinlar, E vitamini va to‘yinmagan yog‘ kislotalari bo‘lgan uzum danagi moyi peroral yo‘l bilan kuniga 2 ml dan 21 kun davomida berildi. Morfometrik o‘lchovlar QuPath dasturida bajarildi.

Natijalar. Biokorreksiyadan so‘ng anesteziya ta’sirida shakllangan giperplastik va gipertrofik siljishlar sezilarli darajada pasaydi. O‘n ikki barmoqli ichakda 3 oylik kalamushlarda mahalliy anesteziyadan keyin so‘rg‘ich balandligi 683±2,4 mkm dan 421±2,8 mkm gacha (−38,4 %), kripta chuqurligi 211±1,7 dan 165±1,9 mkm gacha (−21,8 %), mushak qavati 135±1,5 dan 95±0,6 mkm gacha (−29,6 %) kamaydi; shilliq qavat qalinligi esa 412±2,3 dan 581±2,2 mkm gacha (+41,0 %) ortdi. 9 oylikda so‘rg‘ich balandligi 762±2,7 dan 403±2,5 mkm gacha (−47,1 %) tushdi.

Umumiy anesteziyadan keyin ham ijobiy dinamika saqlanib qoldi: 3 oylik o‘n ikki barmoqli ichakda so‘rg‘ich balandligi 601±2,2 dan 392±2,6 mkm gacha (−34,8 %), 9 oylikda 681±2,5 dan 364±2,4 mkm gacha (−46,5 %) kamaydi, shilliq qavat esa mos ravishda +50,1 % va +24,2 % ga tiklandi. Umuman olganda so‘rg‘ich balandligi 3

oylikda ≈31,3 %, 9 oylikda ≈43,3 % ga, mushak qavati 3 oylikda ≈15,0 %, 9 oylikda ≈25,0 % ga kamaydi.

Xulosa. Uzum danagi moyi bilan biokorreksiya ingichka ichak devoridagi patologik giperplaziya, gipersekretsiya va kollagenizatsiyani sezilarli kamaytirib, devor arxitektonikasini me’yorga yaqinlashtiradi. Korreksion samara mahalliy anesteziyadan keyin umumiy anesteziyaga nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING